

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

6-2025
FILOLOGIYA

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

ADABIYOTSHUNOSLIK

A.G.Sabirdinov Sinovlarda toblangan ijod.....	6
G.M.Kirgizova Iqbol Mirzo ijodiy mahoratining shakllanish omillari	9
S.R.Mirzayeva Common features in the life and work of Babur and Navoi.....	13
S.R.Meliboyeva Zamonaviy o'zbek she'riyatida sun'iy intellekt va inson hissiyotining badiiy ifodasi muammosi.....	18
Я.И.Нишанов, Х.Жўраев Выражение общечеловеческих и национальных особенностей в повествованиях о Юсуфе	23
D.M.Khoshimova “Boburnoma” asarining lingvistik xususiyatlari.....	27
Z.T.Hakimova Ingliz va o'zbek tilidagi tikuvchilik terminlarining leksikografik xususiyatlari	30
Z.T.Hakimova Ingliz va o'zbek tilidagi tikuvchilik terminlarining tarjimaviy muammolari.....	33
D.O.Umarov Roman janri haqida mulohazalar.....	36
D.M.Khoshimova An analysis of “Baburnama” in comparison with its translation	39
Я.И.Нишанов, К.С.Туллекова Любовь в лирике Сапфо и Марины Цветаевой: сравнительный анализ	42
N.Farmonov Naturalism and consumer desire: Theodore Dreiser and the culture of American capitalism	47
Я.И.Нишанов Ассоциативно-вербальные сети концепта старость в языковом сознании носителей русского языка.....	51
D.D.G'ulomov Assotsiativ syujet: genezesi, nazariy paradigmasi va adabiy tahlili.....	55
K.Egamberdiyeva Badiiy adabiyotda ayol ruhiyati va ma'naviy olaminining aks ettirilishi	59
D.M.Abdullayeva Yusuf Xos Hojibning “Qutadg'u bilig” asari va unda ota obrazi	67
M.T.Tolibova Isajon Sulton hikoyalarining syujet qurilishi	71
A.A.Abduraxmonov Halima Xudoyberdiyeva lirikasida oq rang	74
F.X.Nurdinova Tarjimada leksik adekvatlikni ta'minlash (E.L.Voynichning “So'na” romanining rus va o'zbek tillari tarjimasi misolida)	77
F.X.Nurdinova Tarjima jarayonida milliy o'ziga xoslikni saqlash masalalari.....	81

TILSHUNOSLIK

M.M.Abdullayeva Integrating Social-Emotional Learning in foreign language classrooms: benefits and strategies	86
M.Y.Mamajonov	



TARJIMA JARAYONIDA MILLIY O'ZIGA XOSLIKNI SAQLASH MASALALARI

ПРОБЛЕМЫ СОХРАНЕНИЯ НАЦИОНАЛЬНОЙ САМОБЫТНОСТИ В ПРОЦЕССЕ ПЕРЕВОДА

ISSUES IN PRESERVING NATIONAL IDENTITY IN THE TRANSLATION PROCESS

Nurdinova Fotima Xolmirzayevna 

Namangan davlat texnika universiteti

“Xorijiy tillar” kafedrası katta o'qituvchi, filologiya fanlari bo'yicha PhD

Annotatsiya

Ushbu maqolada tarjimada milliy o'ziga xos so'zlarni yetkazish hamda muallifning individual uslubini to'liq aks ettirishga xizmat qiluvchi asosiy tarjima prinsiplari ilmiy-nazariy nuqtai nazardan tahlil qilingan. Tadqiqotda milliy-madaniy birliklarni tarjima qilish jarayonida yuzaga keladigan qiyinchiliklar, ularning ekvivalentini topish, milliy rang-baranglikni saqlash va o'quvchi uchun tushunarli tarzda yetkazish masalalari batafsil ko'rib chiqilgan. Tadqiqot doirasida Mirzakalon Ismoilning “So'na” asari tarjima obyekti sifatida tanlanib, undagi milliy realiyalar, leksik birliklar, obrazli ifodalar va muallifga xos stilistik vositalarning boshqa tilga o'tkazilishiga oid amaliy misollar keltirilgan. Shuningdek, tarjimaning adekvatlik, ekvivalentlik, moslashtirish va izohli tarjima kabi metodlari qo'llanish samaradorligi baholanib, milliy xususiyatlarni to'g'ri yetkazishning eng maqbul usullari yuzasidan xulosalar chiqarilgan.

Аннотация

В данной статье с научно-теоретической точки зрения проанализированы основные принципы перевода, способствующие точной передаче национально-специфических слов и полному отражению индивидуального стиля автора. В исследовании подробно рассмотрены трудности, возникающие при переводе национально-культурных единиц, определение их эквивалентов, сохранение национального колорита и донесение текста до читателя в понятной форме. В рамках исследования в качестве объекта перевода выбрано произведение Мирзакалона Исмоили «Сўна», и приведены практические примеры передачи национальных реалий, лексических единиц, образных выражений и характерных для автора стилистических средств на другой язык. Кроме того, оценена эффективность применения таких методов перевода, как адекватность, эквивалентность, адаптация и пояснительный перевод, и сделаны выводы о наиболее оптимальных способах передачи национальных особенностей.

Abstract

This article provides a scientific and theoretical analysis of the key translation principles that ensure the accurate conveyance of nationally specific words and the full reflection of the author's individual style. The study examines in detail the challenges encountered in translating national-cultural units, the identification of their equivalents, the preservation of national color, and the clear communication of the text to the reader. Within the scope of the research, Mirzakalon Ismoil's “So'na” was selected as the object of translation, and practical examples are provided concerning the transfer of national realities, lexical units, figurative expressions, and author-specific stylistic devices into another language. Additionally, the effectiveness of translation methods such as adequacy, equivalence, adaptation, and explanatory translation is evaluated, and conclusions are drawn regarding the most optimal ways to convey national characteristics accurately.

Kalit so'zlar: badiiy asar, predmet, muallif uslubi, tarjima tamoyillari, adekvat tarjima, ekvivalentlik, moslashtirish (adaptatsiya), izohli tarjima, milliy shakl, milliy-madaniy xususiyat, milliy kolorit, realiyalar, leksik birliklar, idiomalar, stilistika, obrazlilik, madaniy kontekst, ijodiy jarayon, transliteratsiya, transkripsiya.

Ключевые слова: художественное произведение, предмет, стиль автора, принципы перевода, адекватный перевод, эквивалентность, адаптация (модификация), пояснительный перевод, национальная форма, национально-культурная особенность, национальный колорит, реалии, лексические единицы, идиомы, стилистика, образность, культурный контекст, творческий процесс, транслитерация, транскрипция.

Key words: literary work, subject, author's style, translation principles, adequate translation, equivalence, adaptation, explanatory translation, national form, national-cultural feature, national color, realities, lexical units, idioms, stylistics, imagery, cultural context, creative process, transliteration, transcription.

KIRISH

Ma'lum bir xalqqa xos va unga mansub bo'lgan predmet, tushuncha hamda hodisalarni ifodalaydigan so'zlar muallifga o'z asaridagi personajlarning moddiy va ma'naviy hayotini real va milliy koloritda tasvirlash imkonini beradi. Boshqacha qilib aytganda, ushbu so'zlar badiiy asarning milliy xususiyatini shakllantiruvchi va o'quvchiga xalqning madaniy muhitini yetkazuvchi asosiy vositalardan biri sifatida xizmat qiladi. Shu bilan birga, ular matnga o'ziga xos stilistik ohang beradi, personajlarning ijtimoiy va ma'naviy qiyofasini yanada jonli va tushunarli qiladi, tarjimada esa milliy realiyalarni to'g'ri aks ettirish zaruratini yuzaga keltiradi.

Xalqlar turmushiga oid tushunchalarni ifodalovchi so'zlarni tarjimada adekvat talqin qilish, asl milliy xususiyatini boshqa tilda qayta yaratish kabi murakkab va mas'uliyatli vazifalardan biridir. Bunday so'zlar nafaqat leksik ma'noni, balki madaniy, ijtimoiy va tarixiy kontekstni ham o'z ichiga oladi. Tarjimon oldida o'z xalqi uchun begona, nomlari hatto o'z tilida mavjud bo'lmagan predmet, tushuncha va hodisalarni to'la-to'kis va tushunarli tarzda yetkazish vazifasi turadi.

Shuni hisobga olib, tarjimon milliy realiyalarni to'g'ri tanlash, ularning ekvivalentini topish yoki zarurat bo'lganda izohli tarjima va adaptatsiya kabi usullardan foydalanishi lozim bo'ladi. Chunki har bir so'z o'ziga xos madaniy qatlamga ega bo'lib, uni noto'g'ri talqin qilish matnning mazmuni, stilistik ohangi va milliy koloritini buzishi mumkin.

Bundan tashqari, bunday tarjima jarayonida tarjimon ijodiy yondashuvni qo'llashi talab etiladi: matnga mos izohlar berish, leksik va frazeologik birliklarni o'quvchiga tushunarli tarzda yetkazish, va muallifning stilistik xususiyatini saqlash lozim. Shu tariqa, milliy xususiyatlarni to'g'ri aks ettirish faqat so'zlarning ekvivalentini topish emas, balki butun madaniy va ijtimoiy kontekstni boshqa tilda qayta yaratish imkonini beradi.

Xalqlar turmushini aks ettiruvchi so'zlarni tarjimada adekvat talqin etish, ularning milliy koloritini saqlash va matnning stilistik xususiyatini yetkazish tarjimonning eng mas'uliyatli, murakkab va ijodiy jihatdan talabchan vazifalaridan biri hisoblanadi. Bu esa tarjimaning sifatini belgilovchi asosiy mezonlardan biridir.

Tarjima ijodiy jarayon hisoblanadi, chunki u faqat so'zlarni boshqa tilga o'tkazish bilan cheklanmay, matnning mazmuni, stilistik ohangi va madaniy xususiyatlarini ham saqlashni talab qiladi. Turli ilmiy-tanqidiy mulohazalar va xulosalar tarjimonga muayyan yo'l-yo'riq ko'rsatadi, uning ish jarayonini tartibga soladi va strategik qarorlar qabul qilishda yordam beradi. Bu mulohazalar tarjimonning umumiy tasavvurini boyitib, amaliyotda duch kelishi mumkin bo'lgan tasodifiy yoki kutilmagan to'siqlardan mohirona o'tish malakasini shakllantiradi. Tarjima jarayoni nafaqat ijodiy mehnat, balki tarjimonning bilim, tajriba va professional mahoratini talab qiladigan murakkab faoliyat sifatida namoyon bo'ladi. Bu jarayon tarjimonni faqat matnning so'zma-so'z ekvivalenti bilan ishlashga emas, balki u matn orqali o'quvchiga muallifning maqsadi, madaniy konteksti va milliy koloritini yetkazishga yo'naltiradi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Professor A.Fyodorovning fikriga ko'ra, xalqlar turmushiga oid tushunchalarni ifodalovchi so'zlar boshqa tillarga asosan uch asosiy yo'l bilan talqin qilinadi [1]:

- transliteratsiya yo'li bilan;
- tarjima tili boyligi asosida yangi so'z yaratish;
- tarjima tilida asliyatga yaqin vositalar tanlash yo'li bilan.

Bu yondashuvlar tarjimaga milliy xususiyatlarni to'g'ri aks ettirish imkonini beradi va tarjimonning ijodiy hamda ilmiy qaror qabul qilish malakasini talab qiladi.

Bu masalada bolgar olimlari Sergey Vlastov va Sider Florinlarning "Непереводимое в переводе" nomli asarida xalqlar turmush tarzini aks ettiruvchi so'zlarni tarjima qilishning olti yo'li ko'rsatilgan. Shu bilan birga, ularning barcha yo'llari A.V. Fyodorov tomonidan ilgari keltirilgan yondashuvlar asosida tizimlashtirilgan. Boshqacha qilib aytganda, Vlastov va Florinning tavsiyalari Fyodorovning uch asosiy talqin usuliga (transliteratsiya, tarjima tili boyligi asosida yangi so'z yaratish, va asliyatga yaqin vositalar orqali) moslashtirilgan va kengaytirilgan shaklda taqdim etilgan. Bu esa tarjimashunoslikda milliy xususiyatlarni saqlash va to'g'ri aks ettirish borasidagi ilmiy yondashuvlarni birlashtiruvchi muhim manba sifatida qaraladi [5, 6, 7].

Biroq, keyingi yillarda nashr etilgan ishlardagi fikrlar va ularning misollari bu borada yanada kengroq ma'lumot olish imkonini beradi. Masalan, mashhur ingliz yozuvchisi Ethel Lilian

ADABIYOTSHUNOSLIK

Voynichning "The Gadfly" asari 1955 yilda taniqli o'zbek tarjimoni Mirzakalon Ismoilovning qo'li bilan o'zbek tiliga o'girildi. Garchi tarjimon asarni rus tilidan o'giran bo'lsada, u tarjima tilida asliyat muallifi ifodalomoqchi bo'lgan davr ruhini, muallif tasvirlagan personajlarning moddiy va ma'naviy hayotini real va jonli tarzda yetkazishga muvaffaq bo'lgan. Shu tariqa, tarjima nafaqat matn mazmunini, balki asarning milliy xususiyatini saqlash imkonini ham yaratgan.

Bunday misollar tarjimashunoslikda milliy xususiyatlarni yetkazishning amaliy usullarini o'rganish uchun juda muhimdir, chunki ular tarjimonning ijodiy yondashuvi, ekvivalentlikni tanlash va matnga mos adaptatsiya qilish kabi jihatlarni ochib beradi. Misol uchun:

"Signora Grassini greeted Gemma affectionately, exclaiming in a loud whisper: "How charming you look tonight!" and examining the white cashmere with viciously critical eyes" [2].

Asardan olingan ushbu parcha rus tiliga quyidagicha o'girilgan:

"Синьора Грассини встретила Джемму очень приветливо. Как вы сегодня очаровательно! - Воскликнула она громким шепотом, окидывая её белое кашемировое платье враждебно - критическим взором" [3].

O'zbek tilida esa quyidagicha ifodalangan: *"Sinyora Grassini Jemmani juda yaxshi kutib oldi. - O, bugun muncha ham kuydirmajon bo'psiz! - dedi u baland shipshi bilan, Jemmaning oq kashmiriy ko'ylagini ziqnalarcha tanqidiy ko'zdan kechirib" [4].*

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, tarjimonlar o'sha davr ruhini va milliy iforni saqlab qolish maqsadida ingliz tilidagi "Signora" so'zini rus tiliga "Синьора", o'zbek tiliga ham "Sinyora" tarzida o'giranlar. Aslida, "Signora" so'zi italyan tiliga mansub bo'lib, turmushga chiqqan ayollarga nisbatan ishlatiladi va ingliz tilidagi "Mrs" ga yaqin ekvivalentga ega.

Ushbu so'z o'zbek tiliga "xonim" deb tarjima qilinsa ham bo'lardi. Biroq o'zbek tarjimoni muallifning ichki kechinmalarini, asardagi o'ziga xos stilistik va madaniy ohangni saqlash maqsadida bu so'zni transliteratsiya yo'li orqali "Sinyora" tarzida o'giran va shu bilan tarjimaning adekvatligini ta'minlagan. Ushbu yondashuv o'zbek kitobxonlari uchun ham tushunarli bo'lib, asarning milliy va stilistik xususiyatini saqlab qolishga xizmat qilgan.

Yana bir misol: *Now, Cesare, that's downright unfair. I don't like him anymore than you do, but what is the use of making him out worse than he is? His manner is a little affected and irritating - I expect he has been too much lionized - and the everlasting smart speeches are dreadfully tiring; but I don't believe he means any harm [2].*

Rus tilida: *Это уже совсем несправедливо, Чезаре. Я его тоже не люблю. Но зачем же переувеличиват эго недостатки? Правда, у него аффектированная манера держатся, которая раздражает. Правда, и то, что всегда старается остро, а вечное острословие страшно утомительно. Но я не думаю, чтобы он делал все это какой-нибудь дурной стелю [3].*

O'zbek tilida: *O'zini allaqanday kerik tutar ekan, bir ko'rgan kishini g'ashini keltiradi, bunisi to'g'ri. Innaykeyin, yalang gap bilan sanchib olishga tirishadi, hadeb gap bilan sanchib olaverishi ham odamni betoqat qilib yuboradi [4].*

Bu yerda o'zbek tarjimoni tarjima tili boyligidan imkon qadar ustalik bilan foydalangan. Natijada, asliyatda keltirilgan tasviriy ifodalar o'zbek tilida yanada jonli va ta'sirliroq ijodiy vosita sifatida namoyon bo'lgan desak, mubolag'a qilmagan bo'lamiz. Masalan, *"yalang gap bilan sanchib olish"* iborasi nafaqat norozilikni ifodalaydi, balki yuqorida sanab o'tilgan barcha omillarni birlashtirganda ham bu darajada ta'sirli effekt bermagan bo'lar edi. Shu tariqa, tarjimonning leksik va frazeologik boyligidan ustalik bilan foydalanishi, asarning stilistik ohangini va milliy koloritini saqlashga xizmat qilgan.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Yuqoridagi misollardan ko'rinib turibdiki, garchi tarjimon asarning o'zbekcha variantini rus tili vositasida yaratgan bo'lsada, inglizcha asl matnning mazmuni va ruhini bir daqiqa ham nazardan qochirmagan. Shu bilan birga, u yuqorida tilga olingan tarjima tamoyillari asosida ish yuritganligi yaqqol namoyon bo'ladi. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, xalqlar turmush tushunchalarini ifodalovchi so'zlarni talqin etish masalasi mavjud ilmiy-tanqidiy ishlarda har doim amaliy tahlil qilinishi lozim bo'lgan muhim mavzu sifatida qaraladi.

Malakali tarjimonlar aksariyat hollarda muayyan kontekstda ishlatilgan, xalqlar turmush tushunchalarini ifodalovchi so'zlarning funksiyasini qayta tiklash masalasi bilan chuqur

shug'ullanadilar. Bu jarayon tarjimonning nafaqat til boyligi va leksik malakasini, balki madaniy tafakkurini ham talab qiladi. Tarjimonning asosiy vazifasi original matnda mavjud bo'lgan milliy xususiyatni saqlab qolish, ya'ni asliyatdagi madaniy va ijtimoiy kontekstni boshqa xalqning milliy tushunchalari bilan aralashtirmaslikdir [8, 9, 10].

Masalan, agar original matnda keltirilgan milliy ruh Yevropa xalqlarining turmush tarziga oid bo'lsa, uni Osiyo xalqlari madaniyatiga oid tushunchalar bilan almashtirmaslik lozim, bu esa tarjimada originalning milliy xususiyatini va madaniy kontekstini saqlashga xizmat qiladi. Shu yo'l orqali tarjima nafaqat leksik ekvivalentsiyani, balki matnning stilistik ohangini, personajlarning moddiy va ma'naviy hayotini ham o'quvchiga to'la yetkazadi.

Mirzakalon Ismoilij tarjimalari bu jihatdan ajoyib misol bo'lib xizmat qiladi. U o'z tarjimalarida milliy koloritni, asar personajlarining hayot tarzini va madaniy kontekstni sodiq va aniq tarzda aks ettira olgan. Shu tariqa, tarjimonning mahorati faqat so'zlarni boshqa tilga o'tkazishdan iborat emas, balki u matndagi milliy ruh, madaniy tafakkur va stilistik xususiyatlarni saqlash orqali asarni o'quvchi uchun to'liq va jonli qiladi [4, 11, 12].

Shu bilan birga, tarjimonlar ushbu jarayonda ijodiy yondashuvni qo'llashlari kerak matn mazmunini boyitish, leksik va frazeologik birliklarni o'quvchiga tushunarli tarzda yetkazish va originalning o'ziga xos stilini saqlash. Bu esa tarjimashunoslikda milliy xususiyatlarni yetkazish borasidagi eng murakkab va mas'uliyatli vazifalardan biri sifatida qoraladi.

Bundan tashqari, u yoki bu xalqning milliy tushunchalarini ifodalovchi ko'plab so'z va iboralarning ma'nosi hamda funksiyalari mamlakatlar o'rtasidagi madaniy, siyosiy-iqtisodiy va savdo-sotiq kabi turli aloqalar natijasida bir qator xalqlarga, shu jumladan tarjima tiliga mansub o'quvchilarga ham tushunarli bo'lib qoladi. Shu bois, tarjimonlar bunday so'zlar yoki harakatlarni ifodalash uchun alohida so'z qidirishga majbur bo'lmaydilar ular transliteratsiya yo'li bilan ham yetkazishlari mumkin.

Ushbu yondashuv yuqorida keltirilgan misollarda ham o'z aksini topgan. Masalan, "Signora" so'zining o'zbek tiliga "Sinyora" tarzida o'girilishi nafaqat asl matnning stilistik va madaniy xususiyatini saqlashga xizmat qilgan, balki o'quvchiga ham tushunarli bo'lishini ta'minlagan. Shu tariqa, tarjimonning ijodiy yondashuvi, transliteratsiya va boshqa tarjima tamoyillaridan foydalanishi, milliy koloritni saqlash bilan birga, matnning mazmuniy va stilistik boyligini ham ta'minlaydi.

Transliteratsiya so'zlarni tarjima qilmasdan, ularni asl talaffuziga yaqin shaklda yozish yoki aytish usulidir. Ushbu usul tarjimon uchun eng samarali vositalardan biri bo'lib, asliyatning milliy kolloritini, ya'ni tarixiy vaziyatni va personajlarning ijtimoiy muhiti aks etishini ta'minlaydi. Shu sababli tarjimonlar bu usuldan faoliyatlarida keng foydalanadilar. Transliteratsiyadan foydalanishning asosiy sababi - original matnda ishlatilgan milliy xususiyatli leksemalarni tarjima tilida to'liq ifodalashning imkonsizligi va ikki xalq uchun bir xil predmetlar hamda hodisalar nomlarini saqlash zaruratidir. Originalning milliy ruhini aks ettirish majburiyati esa ikki til vositalarini to'liq almashtirishni istisno qiladi [13, 14].

XULOSA

Har bir millat o'z tarixiy rivojlanishi, madaniyati va milliy xususiyatlaridan kelib chiqib, o'z milliy qiyofasini yaratadi. Shu bilan birga, boshqa millatlarning qiyofasi u qanday bo'lsa, shundayligicha e'tirof etilishi va tarjima tilida to'g'ri aks ettirilishi zarur. Hozirgi davr millatlar o'rtasidagi yaqinlashuv va madaniy almashinuv davri bo'lib, bu jarayon kishilarga boshqa millatlarning odatlari va hulq-atvorini chuqurroq tushunish imkonini yaratadi. Tadqiqot davomida keltirilgan misollar transliteratsiya va tarjima jarayonlarida original matnning milliy ruhini saqlashning muhimligini tasdiqladi. Shu tariqa, milliy xususiyatlarni saqlash va ularni aniq ifodalash tarjima faoliyatining ajralmas va muhim qismi ekanligi isbotlanadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Феодорова А. В. Основы общей теории перевода. Изд. 4-е, перераб и доп. - М: 1983 г.
2. Voynich E. L. The Gadfly, Release Date: February 1, 2009 [EBook #3431] Last Updated: March 16, 2018 Language: English, Produced by Judy Boss, and David Widger.
3. Войнич Э.Л. Овод Н. Волжина таржимаси, -М.: Государственное издательство художественной литературы, 1958 г.
4. Voynich E. L. So'na, tarjimon M. Ismoilij, Nashrga tayyorlovchi I. Ahmedov. -T: Yangi asr avlodi, 2023 y.
5. Salomov G'. Tarjima nazariyasi asoslari. -T: O'qituvchi nashriyoti, 1983 y.

ADABIYOTSHUNOSLIK

6. Salomov G'. Badiiy tarjimaning leksik-frazeologik masalalari. -T: Fan nashriyoti 1960 y.
7. Salomov G'. Rus tilidan o'zbekchaga maqol, matal va idiomalarni tarjima qilish masalasiga doir. -T: Fan nashriyoti 1961 y.
8. G'afurov I. Tarjimaning ijodiy jarayonlari va pragmatizm. Qiyosiy tarjimashunoslik va tarjima nazariyasi muammolari (Respublika ilmiy anjuman materiallari). -T: 2007, b.180.
9. Lapasov J. Badiiy matn va lisoniy tahlil. -T: 1995, b.166.
10. Rahimov G'. Tarjima nazariyasi va amaliyoti. -T: O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi nashriyoti, 2016, -b. 108.
11. Sirojiddinov Sh., Odilova G. Badiiy tarjima asoslari. Monografiya. – T: Mumtoz so'z, 2011, - b.60.
12. Sodiqov Z. Tarjima nazariyasi va amaliyoti. -T: 2023, -b.132.
13. Umarxo'jayev M. Tarjima dunyosi va uning falsafasi. Tarjimaning lingvokognitiv, kommunikativ-pragmatik va lingvokul'turologik aspektlari. Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari to'plami. - Andijon: 2015, -b.208.
14. Qur'onov D., Mamajonov Z., Sheraliyeva M. Adabiyotshunoslik lug'ati. -T: Akademya nashr, 2010, -b.210.